

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**NASRULLAYEV JAVOHIRXON RAVSHANXONOVICH**

**INGLIZ, RUS VA O‘ZBEK TILLARIDA OLAMNING LISONIY  
MANZARASIDA “TOLERANTLIK” KONSEPTINING IFODALANISHI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим**

**Contents of the abstract of dissertation of Doctor of philosophy (PhD)  
in philological sciences**

**Nasrullayev Javohirxon Ravshanxonovich**

Ingliz, rus va o‘zbek tillarida olamning lisoniy manzarasida “tolerantlik”  
konseptining ifodalanishi ..... 3

**Насруллаев Жавохирхон Равшанхонович**

Отражение концепта «толерантность» в языковых картинах мира  
английского, русского и узбекского языков..... 27

**Nasrullaev Javokhirkhon Ravshankhonovich**

Reflection of the concept of ‘tolerance’ in the English, Russian and Uzbek  
linguistic worldviews ..... 55

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 59

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**NASRULLAYEV JAVOHIRXON RAVSHANXONOVICH**

**INGLIZ, RUS VA O‘ZBEK TILLARIDA OLAMNING LISONIY  
MANZARASIDA “TOLERANTLIK” KONSEPTINING IFODALANISHI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3537 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan

**Ilmiy rahbar:**

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Shamaxmudova Aziza Furkatovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Daliyeva Madina Xabibullayevna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «20» avgust soat 12<sup>00</sup> da majlisida bo'ladi. (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 238-29-37; faks (99878) 210-00-18; e-mail: [info@samdchti.uz](mailto:info@samdchti.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (5193 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 238-29-37, faks: (99878) 210-00-18.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «6» avgust kuni tarqatildi.  
(2025-yil «6» avgust daqi №28 raqamli reyestr bayonnomasi)



**T.A. Bushuy**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

**O'.O'. Qo'ldoshov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A. Kiselyov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida olamning milliy-madaniy, kognitiv-mental hamda lisoniy manzarasini turli tillardagi umuminsoniy qadriyatlarning lingvistik ifodalanishini chuqur o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanmoqda. Turli madaniyat va tillardagi o'xshash hamda farqli jihatlarni aniqlash, xalqlar ongidagi qadriyat va tushunchalarning til vositasida ifoda topish xususiyatlarini tadqiq qilish orqali til va tafakkur munosabatlarini kengroq yoritish jarayoni jadallashmoqda. Shuning uchun umuminsoniy qadriyat sifatida e'tirof etiladigan "tolerantlik" konseptining ingliz, rus va o'zbek tillaridagi qiyosiy-lisoniy tadqiqi, uning kognitiv-semantik va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash nazariy tilshunoslik taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shish bilangina cheklanmay, madaniyatlararo muloqot samaradorligining oshishiga ham xizmat qiladi.

Dunyoning yetakchi ilmiy maktablari va ilmiy-tadqiqot markazlarida tilshunoslikning kognitiv yo'nalishi, lingvomadaniyatshunoslik, pragmatika hamda olamning lisoniy manzarasi doirasida lisoniy birliklarning turli qiyosiy-tipologik tahlillarini olib borishning keng miqyosda o'rganilishi global darajada jadal rivojlanmoqda. Ushbu ilmiy izlanishlarda inson ongi, milliy mentalitet va til munosabatlarini qiyoslash orqali til birliklarining ichki mazmunini ochib berish muhim vazifa sifatida qaralmoqda. "Tolerantlik" konsepti ham dunyo miqyosidagi ilmiy tadqiqotlar obyektiga aylangan bo'lib, bu konseptning ingliz, rus va o'zbek tillaridagi lingvokognitiv, lingvomadaniy va pragmatik jihatlari hali to'liq qiyosiy aspektida o'rganilmaganligi tadqiqotning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda til va madaniyat aloqalarini o'rganish, millatlararo totuvlik hamda bag'rikenglik tamoyillarining til vositalarida ifodalanishini tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'z tilini hurmat qilgan ma'rifatli el boshqalarning ona tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi. O'zbekistondagi bag'rikenglik siyosati tufayli, hozirda yurtimizda yagona oila bo'lib yashayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillariga o'z ona tili, urf-odat va qadriyatlarini rivojlantirishi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilmoqda"<sup>1</sup>. Zero, O'zbekiston ko'p millatli mamlakat bo'lib, unda millatlararo totuvlik va tolerantlik madaniyatini yanada mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shuning uchun ham ushbu konseptni ingliz, rus va o'zbek tillari materiallari asosida qiyosiy tahlil qilish orqali uning lisoniy-madaniy xususiyatlarini aniqlash va ta'lim jarayonlarida qo'llashning lingvistik asoslarini yaratish muhim ilmiy-amaliy vazifa sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. 4-жилд, – Б. 170.

yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida olamning lisoniy manzarasi, milliy tafakkur va madaniy qadriyatlarning lingvistik ifodasi masalalari uzoq tarixga ega bo'lib, bu yo'nalishda qator yetakchi xorijiy olimlar tomonidan muhim ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika hamda lingvomadaniyatshunoslikning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda M.Jonson, P.Jonson, Yu.N.Karaulov, V.B.Kasevich, G.V.Kolshanskiy, E.S.Kubryakova, J.Lakoff, R.Langacker, V.A.Maslova, Yu.S.Stepanov va A.Vejbitskaya<sup>2</sup> kabi taniqli olimlar tomonidan chuqur tahlillar olib borilgan bo'lib, konseptual metaforalar, freymlar hamda prototiplar kabi nazariy tushunchalar asosida ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ayniqsa, bu olimlarning asarlarida olamning lisoniy va konseptual manzaralari, ular o'rtasidagi farqlar, insonning voqelikni idrok etishi, kategoriyalash jarayonlari, til va tafakkurning o'zaro bog'liqligi hamda konseptualizatsiya mexanizmlari ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan.

O'zbek tilshunosligida ham so'nggi yillarda kognitiv tilshunoslik, pragmatika, lingvomadaniyatshunoslik hamda lisoniy konseptologiya kabi yo'nalishlarda keng ko'lamlil tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, D.U.Ashurova, G.Boqiyeva, A.E.Mamatov, T.Mardiyeu, N.Z.Nasrullayeva, M.Rahmatova, Sh.S.Safarov,

---

<sup>2</sup> Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p; Johnson-Laird P.N. *Mental Models: Towards a Cognitive Science of Language, Inference, and Consciousness*. – Cambridge: Harvard University Press, 1983. – 513 p; Караулов Ю.Н. *Общая и русская идеография*. – Москва: Наука, 1976. – 356 с; Касевич В.Б. *О когнитивной лингвистике // Общее языкознание и теория грамматики*. – Санкт-Петербург: 1998. – С. 14-21; Колшанский Г.В. *Контекстная семантика*. – Москва: Наука, 1980. – 150 с; Кубрякова Е.С. *О современном понимании термина «концепт» в лингвистике и культурологии // Реальность, язык и сознание. Международный межвузовский сборник научных трудов*. – Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2002. – Вып. 2. – С. 5-15; Lakoff G. *Don't Think of an Elephant! Know Your Values and Frame the Debate*. – White River Junction, Vermont: Chelsea Green Publishing, 2004. – 144 p; Langacker R.W. *Foundations of Cognitive Grammar. Volume 1: Theoretical Prerequisites*. – Stanford: Stanford University Press, 1987. – 540 p; Маслова В.А. *Введение в когнитивную лингвистику*. – Москва: 2007. – 296 с; Степанов Ю.С. *Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования*. – Москва: Академический проект, 2001. – 992 с; Вежибицкая А. *Семантические универсалии и описание языков*. – Москва: Языки русской культуры, 1999. – 792 с.

R.Shirinova, O'.Yusupov<sup>3</sup> va boshqa mahalliy tilshunoslar tomonidan keng ko'lamli tadqiqotlarga asos qilib olingan. Ushbu tadqiqotlarda olamning lisoniy manzarasi va konsept tushunchalarining o'zbek tilidagi xususiyatlari, ularning milliy-madaniy tomonlari hamda ingliz, rus va o'zbek tillaridagi o'ziga xos jihatlari chuqur tahlil qilingan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining "Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz, rus va o'zbek tillarida "tolerantlik" konseptining olamning lisoniy manzarasidagi ifodalanish xususiyatlarini kompleks qiyosiy tahlil asosida ularning umumiy va milliy-madaniy o'ziga xos jihatlari ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

"tolerantlik" konsepti va olamning lingvomadaniy manzarasiga oid mavjud ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish hamda mazkur tushunchaning nazariy asoslarini aniqlash;

ingliz, rus va o'zbek tillaridagi "tolerantlik" atamasining leksik-semantik xususiyatlarini va ushbu konseptga tegishli frazeologik birliklarning semantik-konnotativ jihatlari qiyosiy-chog'ishtirma usulda tadqiq etib, ularning izomorfik va allamorfik xususiyatlarini ochib berish;

ingliz, rus va o'zbek maqollarida "tolerantlik" konseptining ifodalanishini qiyosiy tahlil qilib, ularning semantik maydoni va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash;

ingliz, rus va o'zbek tillaridagi publitsistik hamda badiiy matnlarda "tolerantlik" konseptining ifodalanish usullari, pragmatik xususiyatlari hamda ularning til va madaniyatlararo muloqotdagi o'rnini aniqlash.

**Tadqiqotning obykti** sifatida ingliz, rus va o'zbek tillarida "tolerantlik" konseptini ifodalovchi leksik birliklar, frazeologik birliklar, maqollar va publitsistik hamda badiiy matnlar tanlangan.

---

<sup>3</sup> Ашурова Д.У. Когнитивная лингвистика: теоретические и методологические проблемы // Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим. – Самарқанд, 2012. – № 2 (43). – С. 7-11; Ashurova D.U., Galieva M.R. Cognitive linguistics. – Tashkent: VneshInvestProm, 2018. – P. 86; Бакиева Г.Х. Лингвистические основы анализа художественного текста: Автореф. докт. дисс... филол. наук. – Ташкент, 1993. – 46 с; Mamatov A.E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? // O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari: ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon: Andijon nashriyot matbaa, 2012. – B. 212; Мардиев Т. "Бахт" концептининг лингвомаданий ва семантик талкини (инглиз ва ўзбек тиллари қиёсида) // Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим. – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2016. – № 10. – Б. 36-44; Насруллаева Н.З. Формирование гендерных концептов в английской и узбекской фразеологических картинах мира: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 2018. – 250 с; Рахматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида "гўзаллик" концептининг лисоний хусусиятлари: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2019. – Б. 13; Сафаров Ш.С. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – Б. 65; Сафаров Ш. «Концепт» ходисаси ҳақида // Систем-структур тилшунослик муаммолари (Н.Қ. Турниёзов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари). – Самарқанд, 2010. – Б. 185-188; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. Б. 37; Shirinova R.X. Olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi: Diss. ... fil. fan. dok. – Toshkent, 2017. – B. 17; Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультуре атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – Б. 49.

**Tadqiqot predmetini** ingliz, rus va o‘zbek tillarida “tolerantlik” konseptini ifodalovchi leksik, frazeologik, paremiologik birliklarning semantik mazmuni, lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada deskriptiv, qiyosiy-chog‘ishtirma, komponent tahlil, kontekstual tahlil, diskursiv tahlil, shuningdek, korpus lingvistikasi (Britaniya milliy korpusi, Rus milliy korpusi va O‘zbek milliy korpusi) metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi “tolerantlik” konseptining denotativ va konnotativ ma’no bilan bog‘liq semantik maydoni, milliy tafakkurga tayangan lingvomadaniy jihatlari hamda ularning olamning lisoniy manzarasida ifodalanishining izomorf va allomorf xususiyatlari isbotlangan;

“tolerantlik” konseptining ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi leksik, frazeologik, paremiologik qatlamlarda, rus tilida “толерантность”, ingliz tilida “tolerance”, o‘zbek tilida “bag‘rikenglik” tushunchalarining shakllanish va rivojlanish tarixidagi lingvomadaniy tafovutlar hamda mazkur konseptni ifodalovchi lisoniy birliklarning etimologiyasi va semantik taraqqiyoti qiyosiy aspektda dalillangan;

ingliz, rus va o‘zbek tillarida “tolerantlik” konseptini ifodalovchi chidamlilik, hurmat va o‘zaro tushunish, mehr-shafqat va kechirimlilik kabi tushunchalar, ularning semantik va konnotativ jihatlari, ingliz maqollarida shaxs erkinligi va individuallikka oid birliklarning ko‘pligi, rus tilidagi frazeologik birliklarda sabr-toqat va bardoshlilikning asosiy o‘rin egallashi, o‘zbek tilida esa mehr-oqibat va insonlararo munosabatlarga urg‘u berilganligi aniqlangan;

qiyoslanayotgan uch tildagi ijtimoiy-siyosiy va milliy stereotiplarni aniqlashda publitsistik, ilmiy hamda badiiy matnlarda “tolerantlik” konseptining ifodalanish uslubi, diskursiv xususiyatlari, o‘zbek tilida “bag‘rikenglik” konseptining ijobiy qadriyat sifatida barqaror ifodalanishi, rus tilida tanqidiy yoki kinoyaviy tarzda aks ettirilishi, ingliz tilida neytral konnotatsiya bilan qo‘llanilishi ilmiy jihatdan asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ingliz, rus va o‘zbek tillarida “tolerantlik” konseptining keng qamrovli lingvistik portreti shakllantirilib, unga oid asosiy leksik birliklar tizimlashtirilgan hamda frazeologik ifodalar va maqollar semantik jihatdan tasniflangan;

uch til materiali asosida “tolerantlik” konseptining tematik tasnifi ishlab chiqilib, har bir madaniyatga xos bo‘lgan xususiyatlar aniqlangan hamda konseptning qiyosiy tahlili uchala tilda umumiy va o‘ziga xos mazmuniy jihatlarni namoyon etgan;

tadqiqot jarayonida olingan statistik ma’lumotlar asosida konseptning lingvistik vositalar orqali ifodalanish chastotasi va xususiyatlarini aks ettiruvchi jadvallar va diagrammalar yaratilgan, mazkur amaliy natijalar lug‘at va qo‘llanmalar tuzish, tarjima jarayoni hamda til o‘qitish amaliyotida foydalanish uchun zarur metodik material sifatida xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda qo‘llanilgan nazariy yondashuvlar va metodlarning zamonaviy lingvistik talablar va ilmiy mezonlarga

mos kelishi, tadqiq qilingan materiallarning (ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi lingvistik birliklar, frazeologik va paremiologik fondlar hamda milliy korpuslardan olingan matnlar) ishonchli manbalardan olinganligi, tadqiqot vazifalarining aniq qo‘yilishi, natijalarning dalillar bilan mantiqan asoslanganligi, shuningdek, xulosalar va tavsiyalarning ilmiy-amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazilganligi hamda olingan natijalar joriylanishining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Mazkur tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz, rus va o‘zbek tillarida “tolerantlik” konseptining lingvomadaniy va kognitiv jihatdan qiyosiy aspektda o‘rganilishi orqali aniqlanadi. Ishda konseptual tadqiqotlar va qiyosiy tilshunoslik sohasidagi mavjud nazariy qarashlar yanada rivojlantirilib, uch xil milliy-madaniy muhitda “tolerantlik” konseptining lingvistik ifodalanishidagi umuminsoniy va milliy xususiyatlar ochib berildi. Dissertatsiya natijalari semantik maydonlarni, frazeologiya va paremiologiyani qiyosiy jihatdan o‘rganish uchun ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi hamda lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv tilshunoslik bo‘yicha nazariy manbalarni boyitadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ilmiy xulosalar va yaratilgan lingvistik materiallardan umumiy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, qiyosiy lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, pragmatika, stilistika, tarjimashunoslik fanlari doirasida foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, natijalar asosida uch til o‘rtasidagi madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan darslik va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratish, tarjima nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha maxsus kurslar o‘qitish, bakalavr va magistratura bosqichlarida malakaviy ishlar va dissertatsiyalar hamda doktorlik dissertatsiyalarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** “Tolerantlik” konseptiga oid ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi lisoniy birliklarning semantik, lingvomadaniy va diskursiv xususiyatlarini tadqiq qilish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi “tolerantlik” konseptining denotativ va konnotativ ma’no bilan bog‘liq semantik maydoni, milliy tafakkurga tayangan lingvomadaniy jihatlari hamda ularning olamning lisoniy manzarasida ifodalanishining izomorf va allomorf xususiyatlari isbotlanganligiga oid ilmiy xulosalar O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2022-2023-yillarda bajarilgan IL-21091378 raqamli “Oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarni kasbiy saralashning psixologik diagnostikasi tizimini shakllantirish” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 24-martdagi 04-01/1294-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, bo‘lajak filologlarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, ularning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va oliy ta’lim tizimida pedagog-xodimlarning psixologik diagnostikasini amalga oshirishda til omili hamda lingvomadaniy tafovutlarni hisobga oluvchi metodik ta’minot takomillashtirilgan;

“tolerantlik” konseptining ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi leksik, frazeologik, paremiologik qatlamlarda, rus tilida “толерантность”, ingliz tilida “tolerance”, o‘zbek tilida “bag‘rikenglik” tushunchalarining shakllanish va rivojlanish tarixidagi lingvomadaniy tafovutlar hamda mazkur konseptni ifodalovchi lisoniy birliklarning etimologiyasi va semantik taraqqiyoti qiyosiy aspektda dalillanganligiga oid ilmiy natijalaridan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2021-2022 yillarda bajarilgan AL-412104512 raqamli “O‘zbekistonning geografik obyektlari uchun ko‘p tildagi elektron lug‘at yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada keng foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 24-martdagi 04-01/1295-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, ingliz, rus va o‘zbek tillarida “tolerantlik” konseptini ifodalovchi lisoniy birliklarning shakllanish va rivojlanish tarixidagi lingvomadaniy farqlari hamda etimologik-semantik xususiyatlariga oid ilmiy-tadqiqot natijalarining amaliy loyiha doirasida qo‘llanilishi orqali ko‘p tildagi elektron lug‘atning mazmuni lingvomadaniy jihatdan boyitilib, bo‘lajak filologlarning “bag‘rikenglik” (“tolerance”, “толерантность”) tushunchasiga tegishli birliklarni semantik jihatdan chuqur tahlil qilish, qiyosiy-tarixiy ma‘lumotlarni amaliy qo‘llash hamda lug‘at bilan ishlash metodikasi rivojlantirildi. Shuningdek, lug‘atdan foydalanuvchilarda uch til doirasida madaniyatlararo kommunikatsiyani samarali tashkil etish, konseptning lingvomadaniy xususiyatlarini to‘liq idrok etish va amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalari shakllantirildi;

ingliz, rus va o‘zbek tillarida “tolerantlik” konseptini ifodalovchi chidamlilik, hurmat va o‘zaro tushunish, mehr-shafqat va kechirimlilik kabi tushunchalar, ularning semantik va konnotativ jihatlari, ingliz maqollarida shaxs erkinligi va individuallikka oid birliklarning ko‘pligi, rus tilidagi frazeologik birliklarda sabr-toqat va bardoshlilikning asosiy o‘rin egallashi, o‘zbek tilida esa mehr-oqibat va insonlararo munosabatlarga urg‘u berilganligi aniqlanganligiga oid ilmiy xulosalardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-3181 “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 19-martdagi 04/993-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, “tolerantlik” konseptining lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish, uning ingliz tilida shaxs erkinligi va individuallik hurmatiga bog‘liqligi, rus tilida sabr-toqat va bardoshlilik tushunchasi asosiy o‘rinni egallashi, o‘zbek tilida esa mehr-oqibat va insonlararo munosabatlarga urg‘u berilishi” ilmiy jihatdan asoslangan;

qiyoslanayotgan uch tildagi ijtimoiy-siyosiy va milliy stereotiplarni aniqlashda publitsistik, ilmiy hamda badiiy matnlarda “tolerantlik” konseptining ifodalanish uslubi, diskursiv xususiyatlari, o‘zbek tilida “bag‘rikenglik” konseptining ijobiy qadriyat sifatida barqaror ifodalanishi, rus tilida tanqidiy yoki kinoyaviy tarzda aks ettirilishi, ingliz tilida neytral konnotatsiya bilan qo‘llanilishi ilmiy jihatdan asoslanganligiga oid ilmiy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh

elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan "English Access Microscholarship Program" loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 19-martdagi 749/02-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "tolerantlik" konseptining lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy o'rganish, milliy-madaniy farqlarni semantik va diskursiv jihatdan tahlil qilish, shuningdek, konseptning o'zbek tilida ijobiy qadriyat sifatida barqaror ifodalanishi, rus tilida ba'zan tanqidiy yoki kinoyaviy tarzda aks etishi va ingliz tilida odatda neytral konnotatsiyada qo'llanilishi ilmiy jihatdan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 9 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 150 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti va materiali aniqlangan; tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq etilishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, natijalar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Olamning lisoniy manzarasida "tolerantlik" tushunchasi va uning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik yondashuv hamda olamning lisoniy manzarasini kognitiv nuqtayi nazardan o'rganish tahlil qilingan, shu jumladan, lingvomadaniy tadqiqotlarda konsept hodisasining tutgan o'rni ko'rsatilib, "tolerantlik" konseptining turli madaniy-tarixiy va lisoniy kontekstlardagi ifodalanishi o'rganilgan. Mazkur bobda, avvalo, olamning lisoniy manzarasiga oid nazariy qarashlar yoritilgan, so'ngra kognitiv tilshunoslikda konsept tushunchasining mazmuni, uning shakllanishi va nutqda voqelanishi, xususan, "tolerantlik" konseptining lisoniy va madaniy jihatlari tahlil qilingan.

Olamning lisoniy manzarasini tushunish uchun, avvalo, til, tafakkur va madaniyat uyg'unligiga e'tibor qaratiladi. Ayni paytda tilshunoslik tadqiqotlari fokus markazini inson omiliga, ya'ni "antropotsentrik paradigma"ga

ko'chirmoqda. Til – nafaqat nutqiy muloqot vositasi, balki unda insonning butun hayoti, ma'naviy olami va ijtimoiy tajribasi mustahkamlangan. Shu bois, til hodisalarini tahlil qilishda olimlar milliy mentalitet, madaniy stereotiplar, ijtimoiy qadriyatlar va baholash mexanizmlariga murojaat qilmoqdalar<sup>4</sup>. Ushbu jarayon, xususan, olamning lisoniy manzarasini shakllantirishda ona tilida so'zlashuvchilarning olamni anglash, idrok etish uslubi va turli obyektlar haqidagi bilimlari qanday aks etishini tadqiq etishga zamin yaratadi.

Olamning lisoniy manzarasi nazariyasiga oid dastlabki ilmiy qarashlar Yevropa tilshunosligida paydo bo'lib, nemis tilshunosi va faylasufi V.Gumboldt asarlaridan boshlangan<sup>5</sup>. Keyinchalik Y.Lotman, R.Bart, U.Eko, J.Delez kabi olimlar semiotika va madaniy alomatlar tizimini tadqiq etish orqali olam manzarasini keng qamrovda tahlil qilganlar<sup>6</sup>. Tilning mazkur nazariy tadqiqotlaridagi asosi shundan iboratki, har bir milliy til o'ziga xos voqelik modeli, dunyoni ko'rish va baholash mezonlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, tilning kognitiv funksiyasi bilish jarayonlarida, xususan, konseptlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Dissertatsiyaning birinchi bobida Sh.Safarov, N.Nasrullayeva, A.Mamatov, G.Boqiyeva, R.Shirinova singari o'zbek olimlarining qarashlari tahlil qilingan<sup>7</sup>. Ularning ishlarida olamning lisoniy manzarasi til faqat nutqiy muloqotda emas, balki ong, xotira, idrok, baho berish, konseptualizatsiya jarayonlarida ham ishtirok etishi bilan izohlanadi. Sh.Safarov “olamni bilishning asosiy vositasi – ong, til esa ongdagi aqliy faoliyat jarayonlarini kuzatish imkonini beruvchi manba” ekanligini ta'kidlasa, A.Mamatov “olamning lisoniy manzarasida inson markaziy figura” ekanini, inson dunyo modeli yaratuvchisi va uni targ'ib qiluvchi subyekt sifatida til orqali tadqiq qilinishini urg'ulaydi. G.Boqiyeva lisoniy manzarani “inson psixikasini hayvonlar psixikasidan ajratib beruvchi konseptual tasavvur” sifatida ifodalasa, R.Shirinova esa “olamning lisoniy manzarasi” atamasining turli fanda turlicha izohlanishi, ba'zi olimlar uni “olamning lisoniy modeli” yoki “olamni lisoniy idrok qilish manzarasi” shaklida ham qo'llashini qayd etadi.

Olamning lisoniy manzarasi inson nutq amaliyotida qanday shakllanishini tushuntirishda kognitiv paradigma nihoyatda muhimdir, chunki kognitiv

---

<sup>4</sup> Лихачёв Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: антология. – Москва: Языки русской культуры, 1997. – С. 280-287.

<sup>5</sup> Гумбольдт В. фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества. – Москва: Прогресс, 1985. – С. 176.

<sup>6</sup> Лотман Ю.М. О семиосфере. – Санкт-Петербург: Искусство-СПб, 2000. – С. 211; Barthes R. Mythologies. – Paris: Éditions du Seuil, 1957. – P. 145; Eco U. Trattato di semiotica generale. – Milano: Bompiani, 1976. – P. 358; Deleuze G. Cinéma 1: L'image-mouvement. – Paris: Éditions de Minuit, 1983. – P. 195.

<sup>7</sup> Сафаров Ш.С. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – Б. 65; Сафаров Ш. «Концепт» ходисаси хақида // Систем-структур тилшунослик муаммолари (Н.Қ. Турниёзов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари). – Самарқанд, 2010. – Б. 185–188; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. Б. 37; Насруллаева Н.З. Формирование гендерных концептов в английской и узбекской фразеологических картинах мира: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 2018. – 250 с; Mamatov A.E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? // O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari: ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Andijon: Andijon nashriyot matbaa, 2012. – B. 212; Бакиева Г.Х. Лингвистические основы анализа художественного текста: Дисс. ... доктора филол. наук. – Ташкент, 1993. – 7 с; Shirinova R.X. Olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi: Diss. ... fil. fan. dok. – Toshkent, 2017. – B. 17.

tilshunoslikda tilni avtonom tizim sifatida emas, balki kognitsiya bilan bevosita bog‘langan ochiq tizim sifatida izohlaydi. Bunda har bir tabiiy til dunyoni idrok etish va konseptuallashtirishning o‘ziga xos usulini aks ettiradi, inson tajribasini obyektivlashtiradi. Shu ma’nodagi, milliy til – o‘zbek, rus yoki ingliz tili – aynan o‘sha millat vakillarining ongida to‘plangan bilimlar, qadriyatlar, dunyo haqidagi tasavvurlarning lisoniy qiyofaga aylanish vositasidir.

Mazkur bobning **“Konsept va uning lisoniy mohiyati”** deb ataluvchi qismida konsept hodisasi tahlil qilinadi. **“Konsept”** – zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda keng o‘rganilayotgan markaziy tushunchalardan biri bo‘lib, u madaniy, ijtimoiy va kognitiv omillarning yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Dastlab, **“konsept”** termini rus tilshunosligida S.Askoldov tomonidan ma’lum qilinib, keyinchalik Yu.Stepanov, D.Lixachov, G.Kolshanskiy, V.Maslova, A.Vejbitskaya, V.Karasik, B.Serebrennikov singari olimlar izlanishlarida mukammal shakllandi<sup>8</sup>. Konsept nafaqat til semantikasi, balki madaniyat, tarix, mentalitetni ham birlashtiradigan keng ko‘lamli aqliy tuzilma sifatida qaraladi. O‘zbek tilshunosligida ham Sh.Safarov, T.Mardiyev, U.Yusupov kabi olimlar konseptlarni lingvokognitiv nuqtayi nazardan faol tadqiq qilmoqdalar<sup>9</sup>.

Dissertatsiyada **“konsept – tushuncha – so‘z”** munosabatlari chuqur tahlil qilinadi. Konseptni oddiy tushuncha yoki ma’no bilan tenglashtirib bo‘lmaydi, chunki u aqliy va mental strukturadir. Insonning tug‘ma bilimlari, tajriba orqali orttirilgan malakalari, matnlardan qabul qilingan axborot, tafakkur orqali qayta ishlangan bilimlar va, albatta, ona tilida singdirilgan tasavvurlar konseptning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Konseptlar yadro (markaz) va periferiyadan iborat murakkab tizimda namoyon bo‘ladi: markazida asosiy ma’no (kalit so‘z), atrofida esa mazkur konseptning kengaytirilgan semantik, madaniy, ijtimoiy, ba’zan emotsional qirralari joylashadi.

Bobning **““Tolerantlik” konseptining umumiy lisoniy tavsifi”** deb ataluvchi paragrafida **“tolerantlik”** konsepti alohida diqqat markazida tahlil etiladi. Tolerantlik ko‘pincha **“farqlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish”**, **“sabrlik”**, **“bag‘rikenglik”** mazmunlarida izohlanadi. Ammo bu tushuncha faqat passiv chidam yoki bardosh berishdan iborat emas, balki ijtimoiy uyg‘unlik, madaniy rang-baranglik va turli dunyoqarashlarni qabul qilishga faol tayyorlikni ham o‘z

---

<sup>8</sup> Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: антология. – Москва: Языки русской культуры, 1997. – С. 267-279; Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – Москва: Академический проект, 2001. – С. 426; Лихачёв Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: антология. – Москва: Языки русской культуры, 1997. – С. 280-287; Колшанская Г.В. Когнитивные аспекты семантики. – Москва: Наука, 2004. – С. 75; Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. – Москва, 2007. – С. 145; Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. – Москва: Языки русской культуры, 1999. – С. 271; Карасик В.И., Слышкин Г.Г. Базовые характеристики лингвокультурных концептов // Антология концептов. – Волгоград: Парадигма, 2005. – С. 13-15; Серебренников Б.А. Роль человеческого фактора в языке: Язык и мышление / Отв. ред. В.М. Солнцев. – Москва: Наука, 1988. – 164 с.

<sup>9</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 13; Мардиев Т. “Бахт” концептининг лингвомаданий ва семантик талкини (инглиз ва ўзбек тиллари қисиди) // Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим. – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2016. – № 10. – Б. 36-44; Юсупов Ў.К. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультуре атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий амалий конференция материаллари. – Тошкент: 2011. – Б. 49.

ichiga oladi. Tadqiqotda “tolerance” (ingliz tilidan), “толерантность” (rus tilidan) soʻzlarining etimologik kelib chiqishi va oʻzbek tilidagi “tolerantlik” (bagʻrikenglik) shaklining morfologik va semantik oʻziga xosliklari koʻrsatib berilgan.

Shuningdek, kontekstual tahlil asosida siyosiy, taʼlim, ijtimoiy diskurslarda “tolerantlik”ning turli namoyon boʻlishi koʻrsatildi. Masalan, siyosiy nutqda u ijtimoiy adolat, inson huquqlari va tinchlik gʻoyasiga bogʻlanadi, taʼlimiy kontekstda esa farqlarga ochiqlik va xayrixoh muhit yaratish maʼnosiga urgʻu beradi. Oʻzbek lingvomadaniyatida esa bagʻrikenglik qadimdan mehmondoʻstlik, millatlararo totuvlik va ahillik bilan bogʻliq sifatida qadrlanib keladi.

Bundan tashqari, madaniyatlararo muloqotda tolerantlikning ahamiyati, uning ijtimoiy-siyosiy muhitda nizolarni oldini olish, bir-birini tushunish va inklyuziv jamiyatni qurishdagi oʻrni alohida tahlil qilingan. Bu jarayonda til, xususan, nutqiy amaliyotlar, baholash jarayonlari, siyosiy toʻgʻri iboralar (political correctness) va lingvistik tajovuzlardan qochish kabi jihatlar ham yoritilib, tolerantlik “koʻprik qurish” (rus tilidagi “строительство мостов”) kabi metafora bilan izohlanishi mumkinligi qayd etilgan.

Bobda “tolerantlik” konseptining lisoniy ifodasida sufikslar, prefikslar va boshqa soʻz yasash modellari orqali turli soʻz turkumlari hosil boʻlishi (masalan, “tolerant”, “tolerantlik”, “tolerantlashtirish” kabi shakllar) morfologik tahlil yordamida koʻrsatib beriladi. Semantik sohada esa “tolerantlik” ijtimoiy muhit, madaniy birlik, xulq normalari, shaxsiy munosabatlar kabi keng doiralarda ishlatilishi, shu bois maʼno chiziqlari bir necha qatlamdan iborat ekani taʼkidlangan.

Quyidagi rasm “tolerantlik” konsepti lisoniy shakllanishining asosiy tarkibiy qismlarini koʻrsatadi:



### 1.1-rasm. “Tolerantlik” konseptining asosiy lisoniy tarkibiy qismlari

Mazkur konseptda shaxsiy (individual) va jamoaviy (ijtimoiy) nuqtayi nazarlar oʻzaro tutashib ketadi. Bobda keltirilishicha, individual tolerantlik – bu insonning ongida shakllanadigan qadriyat va xulq normalari majmui boʻlsa, jamoaviy tolerantlik – jamiyat yoki muayyan sotsial guruh doirasida farqlarga hurmat va xayrixohlik siyosatini izchil davom ettirishni bildiradi.

Shuningdek, “tolerantlik” konsepti olamning lisoniy manzarasi tarkibida global, milliy va shaxsiy darajadagi bilish jarayonlari bilan bevosita bogʻliq

ekanligi ham ko'rsatiladi. Masalan, global darajada bu tushuncha universal insoniy qadriyat sifatida deyarli barcha jamiyatlarda uchrashi mumkin. Milliy darajada o'zbek tili va madaniyatida "bag'rikenglik" deya, rus jamiyatida "толерантность" deya, ingliz dunyosida "tolerance" deya turli tarixiy, ijtimoiy, hatto diniy xususiyatlar bilan boyitilib ifodalanadi. Shaxsiy darajada esa har bir inson ongida tolerantlik qanday shakllangani, uning shaxsiy tajribasiga va e'tiqodlariga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin.

Dissertatsiyaning "**Ingliz, rus va o'zbek tillarida 'tolerantlik' konseptining turli til sathlaridagi tadqiqi**" deb nomlangan ikkinchi bobida "tolerantlik" konsepti leksik, frazeologik va paremiologik birliklar vositasida qanchalik turli shakllarda ifodalanishi tahlil qilinadi hamda qiyoslanayotgan tillarda ushbu konseptning universal va milliy-madaniy jihatlari izohlanadi. Tadqiqotda "tolerantlik" tushunchasining turli darajalardagi verballashuvi, sinonimiya, antonimiya, kollokatsiya, so'z yasalishi, frazeologizm hamda maqollar orqali o'z ifodasini qanday topishi sinchiklab ko'rib chiqiladi. Bobning asosiy maqsadi – ingliz, rus va o'zbek tillarida "tolerantlik" konseptining leksik-semantik, frazeologik va paremiologik ta'sirchan ifodalari, shuningdek, ularning lingvomadaniy xususiyatlarini qiyoslashdan iborat.

Bobning "**Ingliz, rus va o'zbek tillarining leksik qatlamida 'tolerantlik' konseptining verballashuvi**" deb nomlanuvchi paragrafida "tolerantlik" konseptining ingliz, rus va o'zbek tillarida verballashuviga alohida e'tibor qaratiladi. Ingliz tilida bu tushuncha asosan *tolerance* so'zi orqali ifodalanib, lotincha *tolerare* ("chidamoq, bardosh qilmoq") ildiziga borib taqaladi. Ingliz manbalarda *tolerance* dastlab "og'riqqa yoki qiyinchiliklarga chidamlilik" ma'nosida qo'llangan bo'lsa, ma'rifat davri, ayniqsa J.Lokk asarlari ta'sirida "bag'rikenglik" va "erkinlikka ruxsat berish" ma'nolariga ega bo'lib borgan<sup>10</sup>. Bugun *tolerance* ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy kontekstlarda "boshqalarning e'tiqodi, qarashlari va hayot tarzi farqliligini qabul qilish"ni anglatadi.

Rus tilida "tolerantlik" konsepti tarixan *терпимость* so'zi (терпеть – "chidamoq") bilan bog'liq. *Толерантность* esa nisbatan kech, XX asr oxirlarida ko'proq siyosiy-ijtimoiy diskurs orqali faol iste'molga kirgan. Bu ikki leksema ma'no jihatidan yaqin bo'lsa-da, *терпимость* aksar hollarda passiv chidam va sabrni anglatadi, *толерантность* G'arb madaniy muhitidan kirib kelgan "farqlarga hurmat" g'oyasini ko'proq ifodalaydi.

O'zbek tilida *bag'rikenglik* so'zi "bag'ri" ("ko'ks, ko'ngil") va "keng" leksemasi asosida "keng ko'ngillilik" mazmunini ifodalab, chuqur an'anaviy ildizga ega. Bu atama nafaqat passiv chidam, balki mehmondo'stlik, o'zgalarga saxovatli munosabat, milliy totuvlik va xayrixohlik singari qadriyatlar bilan uyg'unlashgan. Natijada, "bag'rikenglik" o'zbek jamiyatida har doim ijobiy konnotatsiyani hosil qiladi va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, ahillik g'oyalari bilan chambarchas bog'lanadi.

---

<sup>10</sup> Locke J. A Letter Concerning Toleration / Translated by W. Gough. - Oxford: Oxford University Press, 1968. – P. 121.

“Tolerantlik” konsepti bilan ma’nodosh soʻzlar uch tilda ham mavjud. Ingliz tilida *tolerance* sinonimlari sifatida *open-mindedness*, *broad-mindedness* yoki *acceptance* kabi atamalar uchrasa, rus tilida *терпимость*, *снисходительность*, *великодушие* singari soʻzlar baʼzan yaqin ma’nodda qoʻllaniladi. Oʻzbek tilida *bagʻrikenglik* bilvosita *sabr-toqat*, *muruvvat* yoki *mehr-oqibat* kabi leksemalar bilan kesishadi. Biroq, toʻgʻridan-toʻgʻri “jamiyatda farqlarga hurmat bilan munosabat” gʻoyasini eng aniq ifodalaydigan asosiy nomlar uchala tilda ham birgina soʻz doirasida faollashadi: *tolerance/толерантность/bagʻrikenglik*.

“Tolerantlik”ga zid ma’nodagi antonimik soʻzlar esa “murosasizlik”, “mutaassiblik” (rus tilida – фанатизм), “tor fikrlik”, “intolerance” iboralari bilan bogʻliq. Masalan, ingliz tilida *intolerance*, *bigotry*, *prejudice* salbiy konnotatsiyada “boshqalarning farqliligini rad etish” ma’nosini anglatasa, oʻzbek tilida “mutaassiblik” yoki “murosasizlik” ayni tushunchaning qarama-qarshi nuqtasini ifodalaydi.

“Tolerantlik” konseptini ifodalovchi soʻzlarning soʻz yasalishi modellariga eʼtibor qaratiladi. Ingliz tilida *to tolerate* feʼli, *tolerance* ot shakli, *tolerant* sifat shakli va *intolerance* soʻzi – in- prefiksi orqali hosil boʻlgan antonim shaklidir. Rus tilida *толерантность* ot shakli, uning asosidagi sifat – *толерантный*, ravish shakli esa *толерантно* sifatida yasaladi. Shu bilan birga, rus tilida tarixiy ildizga ega “терпимость” va “нетерпимость” soʻzlari ham faol qoʻllanilib, baʼzan zamonaviy “толерантность” bilan sinonimik munosabatda boʻladi. Oʻzbek tilida *bagʻrikenglik* soʻzi “bagʻri” + “keng” + “-lik” qoʻshimchalari orqali bunyod boʻlib, “keng koʻngillik” gʻoyasiga yaqqol urgʻu beradi.

Shuningdek, oʻzbek tilida *bagʻri keng*, *bagʻri ochiq*, *bagʻrikeng* kabi shakllar turli kontekstlarda ishlatilishi mumkin. Inglizcha *tolerance* soʻziga “nol tolerantlik” siyosatini ifodalaydigan *zero tolerance* birikmasi xos boʻlsa, ruscha matnlarda “политика нулевой толерантности” shakli kamroq uchraydi. Oʻzbek tilida esa “nol bagʻrikenglik” iborasi amalda deyarli ishlatilmay, mazkur siyosiy tushuncha murosa qilmaslik ma’nosida aynan “murosasizlik siyosati” deya ifodalanadi.

Bobda qoʻllanish chastotasi korpusli tahlil orqali oʻrganilib, *tolerance* ingliz tilida siyosiy va ijtimoiy diskursda juda faol ekanligi aniqlanadi. Britaniya milliy korpusida *tolerance* ~710 marta uchrashi, *intolerance* soʻzining ~150 marotabada qayd etilishi shundan dalolat beradi<sup>11</sup>. Rus tilida “толерантность” 1990-yillardan soʻng keskin faollashib, ilgari passiv boʻlib kelgan “терпимость” bilan yonma-yon isteʼmol qilina boshlagan<sup>12</sup>. Oʻzbek matnlarida *bagʻrikenglik* asosan rasmiy-publitsistik uslubda (milliy siyosat, davlat nutqlari) koʻp uchraydi, badiiy adabiyotda esa *bagʻri keng* iborasi koʻproq tavsifiy usulda keladi. (Qarang: 2.1-jadvalda atamalarning qoʻllanish chastotasi umumlashtirilgan).

<sup>11</sup> Larina T., Ozyumenko V., Kurteš S. Deconstructing the linguacultural underpinnings of tolerance: Anglo-Slavonic perspectives // *Lodz Papers in Pragmatics*. – 2020. Vol. 16, No. 2. – P. 203-234.

<sup>12</sup> Национальный корпус русского языка. – [Электронный ресурс]. URL: <https://ruscorpora.ru/> (Дата обращения: 08.08.2024)

## 2.1-jadval.

**Milliy korpuslarda tolerantlik va unga aloqador atamalarning taxminiy  
qo‘llanish chastotasi**

<b>Til</b>	<b>Atama (so‘z turkumi)</b>	<b>Korpusdagi chastota (uchrashlar soni; 1 mln so‘z nisbatida)</b>	<b>Qo‘llanish bo‘yicha izohlar</b>
<b>Ingliz tili</b>	tolerance (ot)	~710 marta Britaniya milliy korpusida (million so‘zga 7,1 marta)	Ijtimoiy ma’no ustuvor
	tolerant (sifat)	~380 marta Britaniya milliy korpusida (million so‘zga 3,8 marta)	
	to tolerate (fe‘l)	~200 marta Britaniya milliy korpusida (million so‘zga 2,0 marta)	
	intolerance (ot)	~150 marta Britaniya milliy korpusida (million so‘zga 1,5 marta)	Antonim, kamroq qo‘llanadi
<b>Rus tili</b>	толерантность (ot)	~480 marta Rus milliy korpusida (million so‘zga ~1,6 marta)	1990-yillardan keyin qo‘llanishi keskin oshgan
	терпимость (ot)	~1100 marta Rus milliy korpusida (million so‘zga ~3,7 marta)	An’anaviy so‘z, jumladan, inqilobgacha bo‘lgan matnlarda ham
	толерантный (sifat)	~300 marta Rus milliy korpusida	Zamonaviy nutqda ishlatiladi
	нетерпимость (ot)	~400 marta Rus milliy korpusida	Tarixiy va diniy kontekstlarda ham
<b>O‘zbek tili</b>	bag‘rikenglik (ot)	Aniqlangan aniq ma’lumot yo‘q (taxminan million so‘zga $\leq 1$ marotaba, taxminiy hisob)	Rasmiy va ommaviy nutqda faol, kundalik nutqda esa nisbatan kam
	bag‘rikeng (sifat, «tolerant»)	Kam uchraydi (odatda “bag‘ri keng” shaklida birikma holda)	Ko‘pincha shaxs xarakteristikasi sifatida ishlatiladi
	chidamlilik, sabr-toqat (ot, «chidamlilik»)	Juda past chastota (faqat ayrim kontekstlarda)	Ko‘proq shaxsiy sifat ma’nosida qo‘llanadi
	mutaassiblik (ot, «fanatizm»)	Kam uchraydi (odatda diniy yoki mafkuraviy kontekstdan tashqarida qo‘llanmaydi)	Tolerantlikning qarama-qarshi tushunchasi sifatida

Kollokatsiyalarga e'tibor berilganda, ingliz tilida *religious tolerance, cultural tolerance, racial tolerance* kabi so'z birikmalari tez-tez uchrasa, rus tilida “религиозная толерантность”, “толерантность к другим мнениям” keng tarqalgan. O'zbek tilida “diniy bag'rikenglik”, “millatlararo totuvlik va bag'rikenglik” puxta shakllangan doimiy birikma sifatida faol ishlatiladi.

2.1-rasmda “Tolerantlik” konseptining mazmuniy tarkibi to'rtta asosiy semantik guruhga ajratilgan va ular turli ranglar orqali tasvirlangan. Har bir guruh tolerantlik tushunchasining muhim jihatlarini ochib beradi.



### 2.1-rasm. “Tolerantlik” konseptining semantik klasteri

Quyidagi klasterda “Tolerantlik” konsepti beshta semantik guruhga bo‘lingan: qizil rangda – ijtimoiy tamoyillar va qadriyatlar, sariq-to‘q sariqda – munosabatlar va o‘zaro ta’sir, yashil rangda – emotsional va shaxsiy fazilatlar, havorangda – fikr yuritish va qabul qilish, to‘q ko‘k rangda esa markaziy konsept – tolerantlik aks ettirilgan.


Bobning “**Ingliz, rus va o‘zbek tillarida olamning lisoniy manzarasida “tolerantlik” haqidagi frazeologik birliklar**” nomli paragrafida frazeologik birliklar, ya’ni turg‘un iboralar doirasida “tolerantlik” konseptining qanday aks etishi o‘rganilgan. Ingliz, rus va o‘zbek tillarining frazeologik fondlarida bevosita “tolerance/толерантность/bag‘rikenglik” leksemalari bilan shakllangan turg‘un iboralar deyarli uchramasligi, buning o‘rniga “qabul qilish”, “kechirimlilik”, “mehmondo‘stlik” va “bir-biriga to‘sqinlik qilmaslik” kabi umumiy fazilatlarini ifodalovchi frazeologizmlar keng tarqalganligi aniqlanadi.

Ingliz tilida *live and let live* (“o‘zing ham yashagin, boshqaga ham yashashga imkon ber”) tolerantlik prinsipini eng aniq ifodalovchi iboralardan biridir. Shuningdek, *turn the other cheek* (“ikkinchi yuzingni tut”), *walk a mile in someone’s shoes* (“boshqaning o‘rnida o‘zingni sinab ko‘r”) kabi iboralar sabr, bag‘rikenglik va tushunishga da’vat etadi. Rus tilida “жить в ладу”, “делить хлеб-соль” do‘stona, mehmondo‘st muhitni aks ettirsa, “под одну гребёнку” (“hammani bir tarozida tortish”) bag‘rikenglikning mutlaqo aksi sifatida “farqlarga

e'tibor bermaslik" ma'nosini bildiradi. O'zbek tilida "yovga ham non tutmoq" ("dushmanga ham non berish"), "ko'ngli ochiq", "bag'ri keng" singari iboralar boshqalarga g'ayrioddiy darajada xayrixoh bo'lishni ifodalaydi. Bunday frazeologizmlar milliy madaniy konnotatsiyalarni yorqin namoyon etib, "tolerantlik" – "bag'rikenglik" – "mehmondo'stlik" o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi.

Bobning **"Ingliz, rus va o'zbek maqollarida "tolerantlik" konseptining semantik maydoni"** deb nomlangan so'nggi paragrafida maqol va matallar – ya'ni paremiologik birliklarda "tolerantlik" konseptining qanday ifodalangani qiyoslanadi. Tadqiqot ko'rsatishicha, ingliz, rus va o'zbek paremiologik fondlarida bevosita "tolerance" yoki "толерантность" ishtirok etgan maqollar kam uchrasada, mazkur g'oya "boshqalarning kamchiliklari va farqliligini sabr bilan qabul qilish, nizolardan qochish, tinch-totuv yashash" kabi mavzularda turli obrazlar orqali beriladi. Jumladan, ingliz tilida "Do unto others as you would have them do unto you", rus tilida "Не делай другим того, чего себе не пожелаешь" hamda o'zbek tilida "O'zingga ravo ko'rmaganni o'zgaga ham ravo ko'rma" kabi maqollar orqali ifodalanadi.

Rus maqollarida "yomonlikni yomonlik bilan tuzata olmaysan" ("Злом зло не исправишь") g'oyasi bag'rikenglik va kechirimlilikni ulug'lagan bo'lsa, o'zbek maqollarida "Yovga ham non tutmoq ezgulikdir" kabi ifodalar e'tiborni mehmondo'stlikka qaratadi. Ingliz maqollarida esa "Two wrongs don't make a right" ("Ikki yomonlikdan yaxshilik tug'ilmaydi") yoki "Never judge someone until you've walked a mile in their shoes" ("Boshqaning o'rniga o'zini qo'ymasdan turib, hukm qilma") kabi iboralar bevosita tolerantlikning asosiy tamoyillariga ishora qiladi. Bu ham "ma'naviy sabr, tinch munosabat, farqlarga hurmat" kabilarni targ'ib etadi.



**2.3-rasm. Ingliz, rus va o'zbek tillarida maqollar tematik guruhlarining nisbati**

Dissertatsiyaning “Ingliz, rus va o‘zbek tillarida “tolerantlik” konseptining publitsistik va badiiy diskursda ifodalanishi” deb nomlangan uchinchi bobida “tolerantlik” konseptining mazkur uchta til (ingliz, rus va o‘zbek) matnlarida qanday voqelanishi hamda turli lingvomadaniy faktorlar bilan boyishi tahlil qilingan.

Kognitiv yo‘nalishda matn turli konseptual model va strukturalarning lisoniy in’ikosi sifatida qaraladi. Matn, shu ma’noda, muayyan g‘oya, qarash yoki ijtimoiy qadriyatni aks ettirish va saqlash funksiyasini bajaradi. Tadqiqot doirasida “tolerantlik” konsepti zamonaviy publitsistik matnlarda (gazeta va jurnallar, rasmiy axborot nashrlari) hamda badiiy asarlarda (roman, hikoya, doston) qanday semantik va pragmatik xususiyatlar bilan namoyon bo‘lishi o‘rganildi. Bunda konseptga taalluqli so‘zlar (masalan, *tolerance*, *терпимость* / *толерантность*, *bag‘rikenglik*) va ularning sinonimik qatori, shuningdek, stilistik vositalar (metafora, kinoya, giperbola, antiteza va b.) atroflicha tahlil etildi<sup>13</sup>.

Mazkur bobda dastavval publitsistik diskursda “tolerantlik” tushunchasining faollashuvi ko‘rib chiqildi. Ingliz tilidagi matnlarda “*tolerance*” va “*respect*” so‘zlari bugungi kunda xalqaro miqyosda keng qo‘llaniladi, odatda “hurmat, sabr-toqat, xilma-xillikni qabul qilish” kabi ma’nolarni anglatadi. Masalan, quyidagi iqtibosni ko‘rib chiqamiz:

*“The country’s greatest strength lies in its diversity, its tolerance, and its respect for people of all faiths”*<sup>14</sup>. (The Guardian, 2005-yil 4-avgust, tarjima bizniki: *Mamlakatning eng katta kuchi uning xilma-xilligi, bag‘rikengligi va barcha dinlarga bo‘lgan hurmatidadir.*)

Parchada “diversity” (xilma-xillik) va “tolerance” (bag‘rikenglik) yonma-yon qo‘llanilib, ijobiy kontekstda milliy qadriyat sifatida aks etadi. Ingliz publitsistik matnlarda “tolerantlik” tushunchasi odatda “inklyuzivlik” (*inclusion*), “qabul qilish” (*acceptance*) kabi atamalar bilan bir qatorda keladi. Shuningdek, “*zero tolerance*” kabi birikmalar ham paydo bo‘lgan bo‘lib, bu holat garchi “bag‘rikenglik”ning teskarisi – “mutlaq murosasizlik” siyosati haqida bo‘lsa-da, “tolerantlik” konseptining ma’no doirasini kengaytiradi va uning turli kontekstlardagi qo‘llanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Rus tilidagi publitsistikada “*толерантность*” va “*терпимость*” so‘zlarining tarz va uslub jihatdan farqlanishi kuzatiladi. XX asrning oxirlaridan boshlab, G‘arb siyosiy-normativ lug‘atidan kirib kelgan “*толерантность*” matbuotda keskin faollashgan. Biroq ayrim maqolalarda bu termin “xorijiy siyosiy korrektilik” yoki “G‘arbcha ta’sir” sifatida salbiy talqin qilinishi ham kuzatiladi. Shunday misolga e’tibor beramiz:

*“Пресловутая западная политкорректность под видом «толерантности» навязывает нам чуждые ценности”*<sup>15</sup>. (Российская газета,

<sup>13</sup> Mamatkhanova N.T. The relevance of fostering tolerance // International scientific journal “Interpretation and researches”. - 2022. - Vol. 2, Issue 24 (46). - P. 129-131.

<sup>14</sup> The country's greatest strength lies in its diversity, its tolerance, and its respect for people of all faiths and cultures // The Guardian. – 4 августа 2005. – [Электрон ресурс]. URL: <https://www.theguardian.com/uk/2005/aug/05/britishidentity.july7> (Мурожаат қилинган сана: 08.08.2024).

<sup>15</sup> Королёва М. Марина Королёва рассуждает о слове “толерантность” // Российская газета. – 29 марта 2012. – [Электронный ресурс]. URL: <https://rg.ru/2012/03/29/tolerantnost.html> (Дата обращения: 08.08.2024).

2012-yil 29-mart, tarjima bizniki: *Bu mashhur G'arb siyosiy to'g'riligi "tolerantlik" niqobi ostida bizga begonaday tuyulgan qadriyatlarni tiqishtirmoqda).*

Bu xildagi munosabat publitsistik kontekstda "tolerantlik" konsepti hanuz bahs-munozarali, ba'zan esa tanqidiy tusda qo'llanilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, rasmiy-normativ matnlarda, xususan, davlat siyosatini yorituvchi nashrlarda "межнациональное согласие" (millatlararo totuvlik) va "религиозная толерантность" (diniy bag'rikenglik) ijobiy ohangda oldinga suriladi.

O'zbek tilida esa "bag'rikenglik" milliy lexemasi an'anaviy "keng yuraklik, sabr-toqat va mehr-oqibat" ma'nolarini o'z ichiga oladi. Mustaqillik yillaridan boshlab "bag'rikenglik" tushunchasi OAVda turli ijtimoiy, diniy va millatlararo munosabatlar doirasida keng targ'ib qilinib, davlat siyosatining ustuvor qadriyatlaridan biri sifatida qaraladi. Quyidagi namuna buni ko'rsatadi:

*"O'zbekistonda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik davlatimizning yuksak siyosiy qadriyatidir"*<sup>16</sup> (Yangi O'zbekiston gazetasi, 2022-yil 30-iyul)

Ushbu gapda "totuvlik" va "bag'rikenglik" so'zlari bitta barqaror birikma sifatida milliy mafkura yo'nalishini ifoda etadi. Natijada, "bag'rikenglik" tushunchasi publitsistik uslubda doim ijobiy ma'noda, "yuksak fazilat" tarzida namoyon bo'ladi. Ba'zan "tolerantlik" shaklidagi xorijiy so'z ham uchrashi mumkin, ammo "bag'rikenglik" leksemasi an'anaviy yoki milliy xoslikni kuchliroq aks ettiradi.

Badiiy diskursda "tolerantlik" konsepti yanada keng ma'noda o'z ifodasini topadi. Badiiy asarda yozuvchi konkret syujet va personajlar orqali "boshqani tushunish", "mushtarak ma'naviy qiymatlar"ga e'tibor qaratadi. Tadqiqotda ingliz, rus va o'zbek adabiyotidan olingan namuna matnlar qiyosiy tahlil qilindi. Quyidagi misol ingliz adabiyotidagi "tolerantlik" motivini yoritadi:

*"You never really understand a person until you consider things from his point of view... until you climb into his skin and walk around in it"*<sup>17</sup>. (H. Lee, *To Kill a Mockingbird*, tarjima bizniki: *Boshqa odamni chinakam tushunish uchun uning nuqtayi nazaridan qarab ko'rish kerak; go'yo uning "terisiga kirib" yurib ko'rish kerak.*)

Ushbu parcha badiiy kontekstda "empatiya"ni kuchli ifodalab, tolerantlik (boshqani qabul qilish) tushunchasiga asos bo'luvchi psixologik jarayonni yaqqol ochib beradi. "Terisiga kirish" metaforasi giperbolik tus olib, o'quvchiga boshqani anglash ahamiyatini eslatadi.

Rus badiiy adabiyotida, xususan XIX–XX asrlarda, "толерантность" atamasi bevosita uchramasa-da, "terpimost" yoki "insonparvarlik" (гуманизм) g'oyalari ijodkorlar asarlarida keng yoritiladi. Masalan, F.M.Dostoyevskiyning "Aka-uka Karamazovlar" romanida rohib Zosima quyidagicha nasihat qiladi:

<sup>16</sup> Курбанов Р. Узбекистан – место межнационального согласия // Yuz.uz. – 30 июля 2022. – [Электронный ресурс]. URL: <https://yuz.uz/ru/news/uzbekistan-mesto-mejnatsionalnogo-soglasiya> (Дата обращения: 08.08.2024).

<sup>17</sup> Lee H. *To Kill a Mockingbird*. - Philadelphia: J.B. Lippincott & Co., 1960. - P. 39.

*“Возлюби каждого человека, как самого себя, и прости каждому, как Бог тебе прощает”*<sup>18</sup>. (tarjima bizniki: *Har bir insonni o‘zing kabi sev, va har kimdan kechirim so‘ra – shunda baxtli bo‘lasan.*)

Bu o‘rinda xristian bag‘rikenglik va kechirimlilik mafkurasi ilgari surilmoqda. Muallif “boshqa odamning xatolarini kechirish”ni yuksak axloqiy fazilat deya e‘lon qiladi. Shuningdek, A.P.Chexovning “futlyardagi odam” obrazida (Belikov) murosasizlik, har qanday yangilikdan cho‘chish keskin qoralanadi, bu orqali bag‘rikenglikning ijtimoiy-axloqiy ahamiyati bilvosita ta‘kidlanadi<sup>19</sup>.

O‘zbek adabiyotida “bag‘rikenglik” tushunchasi tarixiy davrlardan buyon “saxovat, mehr-shafqat, o‘zgalarga hurmat” motivlari yordamida ochiladi. Masalan, Alisher Navoiy asarlarida “keng ko‘ngil” bo‘lish, odamlarning kamchiliklarini kechirish, do‘stona muomala qilish odobi tez-tez urg‘ulanadi. Garchi Navoiy “tolerantlik” atamasini o‘zbekcha shaklda ishlatmagan bo‘lsa-da, uning ijodida “har bir bandaga yaxshilik qilish” g‘oyasi ko‘p bora uchraydi. Qur‘ondagi “biron yomonlikka yaxshilik bilan javob berish” ma‘nosi Navoiy satrlarida ham o‘ziga xos badiiy ifodasini topadi:

*“Kimki olam ahli biling yaxshilig‘ qilsa mudom,*

*Topqay oni o‘zga xalqdin yaxshiliq, izzat, ikrom”*<sup>20</sup>. (A.Navoiy, “Mahbub ul-qulub”)

Mazkur baytda “boshqalarga yaxshilik qilgan inson”ni hamjamiyat e‘zozlaydi, degan g‘oya ilgari suriladi. Bu nafaqat ijtimoiy xulq, balki chin insoniy fazilat shaklida madh etiladi. Keyingi davr – jadid ma‘rifatchiligi (XIX–XX asr boshi) davrida ham “mutaassiblikni qoralash” asosida har qanday yangilikka ochiq bo‘lish, boshqalarning huquq va manfaatlarini hurmat qilish, bag‘rikeng yondashuv ta‘kidlangani ko‘zga tashlanadi.

Badiiy matndagi “tolerantlik” konsepti bilan bog‘liq so‘z va iboralarni boshqa tilga tarjima qilishda turli muammolar kelib chiqadi. Masalan, inglizcha *to tolerate* fe‘li ba‘zan “chidamoq, ko‘tara bilmoq, e‘tiroz bildirmaslik” ma‘nosida ifodalanib, ijobiy yoki betaraf munosabatni bildiradi. Rus tilidagi “терпеть” ham shunga yaqin: “azoblanib bo‘lsa-da, chidash”. O‘zbek tilidagi “sabr-toqat” tushunchasi esa ko‘proq ijobiy-diniy kayfiyat bilan bog‘lanadi. Agar tarjimon “bag‘rikenglik”ni faqat “tolerance” yoki “терпимость” deya so‘zma-so‘z o‘girsas, matnda semantik ranglar yo‘qolishi mumkin. Buning oldini olish uchun tarjimon, xususan, badiiy kontekstni hisobga olib, kerak bo‘lsa sinonimik so‘zlar yoki tushuntirish usulidan foydalangani ma‘qul.

Publitsistik matnlardan farqli o‘laroq, badiiy adabiyot konseptga estetik qiymat ham qo‘shadi. Yozuvchi ma‘lum personajlar, syujet voqealari, konfliktidagi dramatik lahzalar yordamida tolerantlikning ijtimoiy, ma‘naviy, psixologik ko‘rinishlarini namoyish etadi. Bu jarayonda “bag‘rikenglik” konsepti ko‘pincha

<sup>18</sup> Достоевский Ф. М. Братья Карамазовы: роман в четырех частях с эпилогом / Ф.М. Достоевский. - СПб.: Русский вестник, 1880. - Кн. II, Ч. 2, гл. 4.

<sup>19</sup> Чехов А.П. Письмо брату Николаю (март 1886 г.) // Чехов А.П. Полное собрание сочинений и писем: в 30 т. - М.: Наука, 1974–1983. - Т. 3. Письма 1884–1886. – С. 332-368.

<sup>20</sup> Навоий А. Махбуб ул-қулуб / А. Навоий. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – 320 б.

“keng ko‘ngil”, “xayrixohlik”, “donolik” kabi xususiyatlar bilan uyg‘unlashadi va ijobiy qahramon xarakterini to‘ldirishga xizmat qiladi. Yoki, aksincha, intolerant (murosasiz) qahramonlar orqali jamiyatdagi kamsitish, zo‘ravonlik, tuhmat, adovat kabi illatlar tanqid qilinadi. Bunday stilistik qarama-qarshilikni antiteza shaklida ham ko‘rish mumkin.

Xususan, zamonaviy o‘zbek nasrida turli qarash va din vakillari o‘rtasidagi hurmat-e’tibor, hamkorlik va hayotiy muammolarni birgalikda hal qilish syujetlar orqali aks etadi. Masalan, qishloqda musofir bo‘lib kelgan bosh qahramonning mahalliy tomonidan ochiq qo‘l bilan kutib olinishi, ularning millati yoki e’tiqodi boshqa bo‘lsa ham, do‘stona aloqaga sodiq qolishi badiiy detallar vositasida tasvirlanadi. O‘quvchi shunday asarlarni o‘qir ekan, “bag‘rikenglik” tushunchasi nafaqat rasmiy siyosiy shior, balki hayotiy tajriba sifatida qadrlanishini his qiladi.

Ingliz, rus va o‘zbek tillarida “tolerantlik” konsepti, bir qaraganda, bir xil asosiy mazmun – “boshqaning huquq, e’tiqod va uslubini hurmat qilish, u bilan totuv yashash”ni ifodalaydi. Biroq lingvomadaniy tafovutlar tufayli bu konsept turli konnotatsiya va uslubiy xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Ingliz tilida “tolerance” an’anaviy ravishda liberal demokratiya, inson huquqlari, xilma-xillikka nisbatan ijobiy munosabat bilan bog‘liq. Rus tilida “толерантность” so‘zi nisbatan yangiroq bo‘lib, ba’zan “xorijiy siyosiy korrektlik” bilan uyg‘unlashgan holda bahsli tus oladi. O‘zbek tilida esa “bag‘rikenglik” azaldan “keng yuraklik” tushunchasi sifatida milliy an’analar bilan uyg‘unlashgan, har doim e’zozlanib kelingan qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Dissertatsiyada ko‘rsatib o‘tilganidek, publitsistik diskurs ushbu konseptni yanada rasmiy va deklarativ shaklda yoritadi: maqolalar, rasmiy bayonotlar, tahliliy sharhlar “tolerantlik”ni ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning zarur omili sifatida taqdim etadi. Badiiy diskursda esa konsept shaxsiy kechinmalar, personajlararo munosabatlar, konfliktlar orqali chuqur hissiy-ma’naviy jihatdan ochiladi. Shu sabab, har ikki tur diskursda “tolerantlik” konsepti lingvosemantik hamda stilistik nuqtayi nazardan ham turlicha: publitsistikada ko‘proq informatsion, rasmiy da’vat ohangi ustun bo‘lsa, badiiy adabiyotda badiiy tasvir, metaforik boyitish, shaxsiy baho berish shakli yetakchilik qiladi.

“Tolerantlik” konseptining turli tillardagi voqelanishini tahlil qilish, avvalo, madaniy muloqot hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni anglashda muhim ahamiyatga ega. Tarjimon yoki til tadqiqotchisi nafaqat so‘zning lug‘aviy ma’nosini, balki uning tarixiy, ijtimoiy va ma’naviy kontekstlarini ham hisobga olishi lozim. Bunda “bag‘rikenglik” faqat “tolerance” yoki “терпимость” shaklida o‘zbekchaga aynan kalkalanishi kifoya qilmasligi mumkin – har bir til o‘ziga xos semantik maydon, obrazlar, frazeologik juftliklar hamda subyektiv munosabatlar jamlamasidir.

## XULOSA

1. Dissertatsiyada ingliz, rus va o‘zbek tillarida “tolerantlik” konseptining olamning lisoniy manzarasida ifodalangani ilk bor qiyosiy-kognitiv yondashuv asosida chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot zamonaviy konseptual tahlil, lingvomadaniy

yondashuv va semantik maydon nazariyasiga tayangan holda, tolerantlik tushunchasining har bir til va madaniyatda tarixiy, axloqiy hamda ijtimoiy-ma'naviy asosda shakllanganini ko'rsatdi. Natijada, bu konseptning leksik-semantik, frazeologik va diskursiv darajadagi ifodalanishi orqali til va tafakkur, til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi.

2. "Tolerantlik" konsepti har uchala tilda leksik-semantik, frazeologik, paremiologik va diskursiv qatlamlarda tadqiq etilib, semantik qatlamlari batafsil tahlil qilindi. Kompleks yondashuv asosida konseptning har bir til uchun umumiy semantik yadrosi va o'ziga xos ma'no doiralari aniqlandi. Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi asosiy leksik birliklar (tolerance, толерантность, bag'rikenglik) hamda ularning sinonimik qatorlari, so'z yasaliş xususiyatlari qiyosiy o'rganildi. Natijada mazkur konseptning lingvistik ifodalanishi va unga yuklangan madaniy-ma'naviy mazmun qirralarini tizimli solishtirish imkoniyati yaratildi.

3. Barcha ko'rib chiqilgan tillarda "tolerantlik" konseptining umumiy semantik yadrosi boshqalarni ularning farqliligini tan olgan holda qabul qilish g'oyasi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, har bir tilda ushbu konseptning lingvomadaniy ifodasi o'ziga xos shakllangan. Qiyosiy tahlil natijasida konseptning izomorfik (umumiy) va allomorfik (milliy-xususiy) jihatlari aniqlandi. Masalan, tolerantlik g'oyasi ingliz tilida erkinlik va xilma-xillikka hurmat kontekstida namoyon bo'lsa, rus tilida sabr-bardosh va jamoaviy totuvlik an'analari bilan uyg'unlashadi, o'zbek tilida esa mehmondo'stlik va mehr-oqibat qadriyatlari prizmasida talqin etiladi.

4. Ingliz, rus va o'zbek tillarida "tolerantlik" konseptining shakllanish tarixi, etimologiyasi hamda u bilan bog'liq leksik birliklarning tuzilishi va grammatik tizimi har xil yo'nalishda rivojlangan. Ingliz tilida *tolerance* atamasi Yevropa ma'rifatchilik falsafasi va ijtimoiy g'oyalar rivoji jarayonida shakllanib, *to tolerate*, *tolerant*, *tolerantly* kabi hosila birliklar bilan boy leksik-semantik maydonni tashkil qiladi. Rus tilida esa *толерантность* termini xorijdan kirib kelgan bo'lib, u *толерантный*, *толерантно* kabi grammatik shakllarga ega, shuningdek, an'anaviy *терпимость* atamasi bilan ma'nodosh tarzda yangi ijtimoiy-madaniy kontekstlarda faol qo'llanadi. O'zbek tilida esa global "tolerantlik" konsepti milliy *bag'rikenglik* atamasi orqali ifodalanadi; bu birlik zamirida xalqona kenglik, saxiylik va murosa g'oyalari mujassam bo'lib, u *bag'rikeng*, *bag'rikenglik*, *tolerantlashtirish* kabi vositalar bilan semantik va grammatik jihatdan rivojlanmoqda. Shu tariqa, har bir tildagi konseptual o'ziga xoslik, milliy-madaniy kontekst va leksik-tizimli xususiyatlar qiyosiy tahlil doirasida chuqur yoritildi.

5. Uch tilda tolerantlik mazmunini ifodalovchi frazeologik ibora va maqollar tematik guruhlarga ajratilib, ularning ma'no hamda konnotativ qirralaridagi farqlar ochib berildi. Ingliz tilidagi maqollarda shaxs erkinligi, fikrlar xilma-xilligi va individuallikka hurmat g'oyalari ustunligi aniqlangan (masalan, "Live and let live" – "O'zing yashagin, boshqalarni ham yashashga qo'y"). Rus tilidagi iboralarda esa sabr-toqat, bardoshlilik va kechirimlilik mazmunlariga urg'u berilishi kuzatildi ("Терпение и труд всё перетрут" – "Sabr va mehnat bilan barcha qiyinchiliklar yengiladi"). O'zbek xalq maqollari va matallarida *bag'rikenglik* konsepti mehr-

oqibat, ahillik va birodarlik kabi qadriyatlarga tayangan holda talqin etilib, “Yomonlikka yaxshilik” singari hikmatlar orqali ifoda etiladi.

6. Publitsistik (ommaviy axborot vositalari) diskurs tahlili uch tilda “tolerantlik” konseptining turlicha talqin etilishini ko’rsatdi. Ingliz OAVlarida tolerance konsepti xilma-xillik, hurmat va inklyuzivlik kabi ijobiy qadriyatlar bilan chambarchas bog’lanib, fuqarolik jamiyatida mustahkam o’rin egallaydi (shuningdek, “zero tolerance” iborasi qat’iy siyosat ma’nosida qo’llanadi). Rus ommaviy axborot vositalarida толерантность atamasi, ayniqsa, 2000-yillardan boshlab faol ishlatilib, rasmiy nutqda millatlararo totuvlikning muhim sharti sifatida e’tirof etiladi, biroq ba’zi maqolalarda bu tushuncha “g’arbona siyosiy korrektlik” tarzida tanqidiy talqin qilinishi kuzatiladi. O’zbek matbuotida esa bag’rikenglik doim davlat siyosati va milliy mafkura bilan uzviy bog’liq holda yoritilib, yangi davrda ushbu konsept tarixiy an’analar va diniy bag’rikenglik tamoyillari bilan uyg’un tarzda faqat ijobiy kontekstda qo’llanmoqda.

7. Badiiy adabiyot diskursida tolerantlik konsepti har bir milliy adabiyot doirasida o’ziga xos qirralarda namoyon bo’ladi. Ingliz adabiyotida bag’rikenglik odatda shaxsiy tanlov va inson huquqlariga sodiqlik timsolida gavdalanib, “ochiq yurak” va “boshqaning o’rniga o’zini qo’yish” kabi metaforalar orqali ifodalanadi. Rus adabiyotida mazkur konsept xristian axloqiy an’analari zaminida sabr, hamdardlik va kechirimlilik g’oyalari bilan yoritilib keladi; XX asrga kelib “толерантность” atamasi jamiyatdagi yangi mojarolar kontekstida tilga olinib, an’anaviy “keng rus ruhi” obrazi bilan qarama-qarshi qo’yiladi. O’zbek adabiyotida esa “bag’rikenglik” g’oyasi mehmondo’sstlik, jamoaviy ahillik va “yomonlikka yaxshilik” kabi milliy qadriyatlar asosida talqin etilib, klassik she’riyatdan tortib zamonaviy asarlargacha bu fazilat yuksak ideallar qatorida ulug’lanadi.

8. Qiyosiy tahlil jarayonida har bir tilga xos nozik ma’no tovlanishlari va konnotatsiyalar aniqlanib, ularni tarjima hamda madaniyatlararo muloqotda inobatga olish lozimligi ta’kidlandi. Masalan, rus tilida “толерантность” tushunchasini samimiyat va hurmat ohanglari bilan boyitib ifodalash zarurligi qayd etilgan bo’lsa, ingliz tilida tolerantlik haqida so’z borganda unga ko’pincha muruvvat va saxovat kabi ijobiy tuyg’ular singdirilishi kuzatiladi. Bu holat shuni ko’rsatadiki, qadriyatlar umuminsoniy bo’lsa-da, ularning til vositasidagi ifodasi va madaniy urg’ularida sezilarli farqlar mavjud. Demak, tolerantlik konseptini lingvomadaniy jihatdan chuqur o’rganish natijalari tarjima nazariyasi, til o’qitish va madaniyatlararo kommunikatsiya uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

9. Tadqiqot yakunida ingliz, rus va o’zbek tillarida “tolerantlik” konseptining ko’p qirrali va tizimli lisoniy portreti shakllantirildi. Konseptga oid asosiy leksik birliklar, frazeologik birikmalar hamda paremiologik vositalar chuqur tahlil qilinib, ularning sabr-toqat, hurmat, kechirimlilik, yomonlikka yaxshilik, mehr-shafqat kabi tematik guruhlariga ajratilgan holda tizimlashtirilishi amalga oshirildi. Qiyosiy-lingvistik tahlil natijasida konseptning har uch tildagi umumiy semantik yadrosi va milliy-madaniy jihatdan farqlanuvchi mazmun qatlamlari aniqlanib,

ularning qo'llanish chastotasi va kontekstual xususiyatlarini ifodalovchi grafik va jadval shaklidagi vizual materiallar ishlab chiqildi.

10. Tolerantlik konsepti ingliz, rus va o'zbek tillarida qiyosiy-lingvomadaniy va kognitiv yondashuv asosida tahlil qilinib, konseptning asosiy leksik birliklari, frazeologizmlari va maqollari tizimlashtirildi. Semantik va konnotativ jihatlarni ochib berish maqsadida 5 ta tematik guruh ajratildi: 1) farqlarga bag'rikenglik, 2) sabr-toqat va chidamlilik, 3) hurmat va o'zaro tushunish, 4) mehr-shafqat va kechirimlilik, 5) birlik va hamjihatlik. Har bir guruh bo'yicha har tildan kamida 20-25 maqol va birikma tanlab, ularning tahlili grafik va jadval asosida berildi. Tolerantlik ifodalanishining eng yuqori chastotasi "sabr-toqat" guruhiga to'g'ri kelib, ingliz tilida 30%, rus tilida 40%, o'zbek tilida 42% ni tashkil etdi. Ingliz tilida tolerantlik – individuallik va erkinlik, rus tilida – chidamlilik va ruhiy barqarorlik, o'zbek tilida esa – qo'shnichilik, mahalla, mehmondo'stlik qadriyatlari orqali ifodalangan. Tadqiqot natijalari publitsistika, adabiyot, siyosiy nutq va ta'lim diskurslarida konseptning qanday shakllanayotganini ochib berdi hamda xorijiy tillarni o'qitish, tarjima va madaniyatlararo kommunikatsiyada amaliy metodik asos yaratdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**НАСРУЛЛАЕВ ЖАВОХИРХОН РАВШАНХОНОВИЧ**

**ОТРАЖЕНИЕ КОНЦЕПТА «ТОЛЕРАНТНОСТЬ» В ЯЗЫКОВЫХ  
КАРТИНАХ МИРА АНГЛИЙСКОГО, РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО  
ЯЗЫКОВ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и  
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/Fil3537.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:** **Насруллаева Нафиса Зафаровна**  
доктор филологических наук (DSc), профессор

**Официальные оппоненты:** **Шамахмудова Азиза Фуркатовна**  
доктор филологических наук (DSc), профессор

**Далиева Мадина Хабибуллаевна**  
доктор филологических наук (DSc), профессор

**Ведущая организация:** **Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится «20» августа 2025 года в 12<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 238-29-37; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: [info@samdchti.uz](mailto:info@samdchti.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 57933). Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 238-29-37; факс: (99866) 210-00-18.

Автореферат диссертации разослан «6» августа 2025 года.  
(Протокол реестра рассылки за № 28 от «6» августа 2025 года)



**Т.А. Бушуй**  
Заместитель председателя научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

**У.У. Кулдошов**  
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

**Д.А. Киселёв**  
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы исследования.** В современной мировой лингвистике глубокое изучение национально-культурной, когнитивно-ментальной и языковой картины мира, а также лингвистических способов выражения общечеловеческих ценностей в разных языках является одной из актуальных задач. Процесс более глубокого освещения взаимосвязи языка и мышления интенсифицируется за счет выявления сходств и различий между разными культурами и языками, а также за счет исследования особенностей выражения посредством языка ценностей и понятий, закреплённых в сознании народов. В этой связи сравнительно-лингвистическое исследование концепта «толерантность», признаваемого общечеловеческой ценностью, на материале английского, русского и узбекского языков, а также определение его когнитивно-семантических и национально-культурных особенностей не только внесёт значительный вклад в развитие теоретического языкознания, но и будет способствовать повышению эффективности межкультурной коммуникации.

Сегодня в ведущих научных школах и исследовательских центрах мира широко и активно проводятся сравнительно-типологические анализы языковых единиц в рамках когнитивной лингвистики, лингвокультурологии, прагматики и теории языковой картины мира, что представляет собой стремительно развивающееся направление на глобальном уровне. В данных научных изысканиях особое значение приобретает раскрытие внутреннего содержания языковых единиц посредством сопоставления человеческого сознания, национального менталитета и языка. Концепт «толерантность» также приобрёл статус объекта научных исследований мирового уровня, однако тот факт, что его лингвокогнитивные, лингвокультурные и прагматические аспекты на материале английского, русского и узбекского языков до сих пор не были в полной мере изучены в сравнительном аспекте, существенно повышает научную значимость настоящего исследования.

В последние годы в нашей стране особое внимание уделяется изучению взаимосвязей языка и культуры, а также исследованию языковых средств выражения принципов межнационального согласия и толерантности. Как подчеркнул Президент Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёев: «...просвещённый народ, уважающий свой язык, также относится с глубоким уважением и к родному языку других народов. Благодаря политике толерантности в Узбекистане сегодня для представителей более 130 национальностей и народностей, проживающих в нашей стране единой семьёй, созданы все условия для развития их родного языка, традиций и ценностей»<sup>21</sup>. Узбекистан является многонациональным государством, поэтому дальнейшее укрепление межнационального согласия и культуры толерантности выступает одним из приоритетных направлений государственной политики. В этой связи сравнительный анализ концепта

---

<sup>21</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. 4-жилд, – Б. 170.

«толерантность» на материале английского, русского и узбекского языков, выявление его языково-культурных особенностей и создание лингвистических основ для использования полученных результатов в образовательном процессе представляет собой важную научно-практическую задачу.

Данное исследование в определённой степени способствует реализации задач, определённых в Указе Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Указе от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Постановлении от 20 апреля 2017 года № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», Постановлении от 5 июня 2018 года № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в широкомасштабных реформах, осуществляемых в стране», Постановлении от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по выводу на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», а также в других нормативно-правовых документах, связанных с данной сферой.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан: 1. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** В мировой лингвистике вопросы языковой картины мира, языкового выражения национального мышления и культурных ценностей имеют длительную историю, в этом направлении проведены значимые исследования рядом ведущих зарубежных учёных. В частности, глубокий анализ и формирование теоретико-практических основ когнитивной лингвистики, прагмалингвистики и лингвокультурологии осуществлены такими известными учёными, как М. Джонсон, П. Джонсон, Ю.Н. Караулов, В.Б. Касевич, Г.В. Колшанский, Е.С. Кубрякова, Дж. Лакофф, Р. Лангакер, В.А. Маслова, Ю.С. Степанов и А. Вежбицкая<sup>22</sup>,

---

<sup>22</sup> Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p; Johnson-Laird P.N. *Mental Models: Towards a Cognitive Science of Language, Inference, and Consciousness*. – Cambridge: Harvard University Press, 1983. – 513 p; Караулов Ю.Н. *Общая и русская идеография*. – Москва: Наука, 1976. – 356 с; Касевич В.Б. *О когнитивной лингвистике // Общее языкознание и теория грамматики*. – Санкт-Петербург: 1998. – С. 14-21; Колшанский Г.В. *Контекстная семантика*. – Москва: Наука, 1980. – 150 с; Кубрякова Е.С. *О современном понимании термина «концепт» в лингвистике и культурологии // Реальность, язык и сознание. Международный межвузовский сборник научных трудов*. – Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2002. – Вып. 2. – С. 5-15; Lakoff G. *Don't Think of an Elephant! Know Your Values and Frame the Debate*. – White River Junction, Vermont: Chelsea Green Publishing, 2004. – 144 p; Langacker R.W. *Foundations of Cognitive Grammar. Volume 1: Theoretical Prerequisites*. – Stanford: Stanford University Press, 1987. – 540 p; Маслова В.А. *Введение в когнитивную лингвистику*. – Москва: 2007. – 296 с; Степанов Ю.С. *Константы*.

которыми были разработаны научные подходы на основе таких теоретических понятий, как концептуальные метафоры, фреймы и прототипы. В трудах этих учёных с научной точки зрения освещены языковая и концептуальная картины мира, различия между ними, восприятие человеком действительности, процессы категоризации, взаимосвязь языка и мышления, а также механизмы концептуализации.

В узбекском языкознании в последние годы также проводятся масштабные исследования в таких направлениях, как когнитивная лингвистика, прагматика, лингвокультурология и лингвоконцептология. В частности, исследования таких отечественных лингвистов, как Д.У. Ашурова, Г. Бокиева, А.Э. Маматов, Т. Мардиев, Н.З. Насруллаева, М. Рахматова, Ш.С. Сафаров, Р. Ширинова, У. Юсупов<sup>23</sup> и других учёных стали основой для широкого спектра работ в указанных направлениях. В этих исследованиях глубоко проанализированы особенности языковой картины мира и концептов в узбекском языке, их национально-культурные аспекты, а также специфические черты данных понятий в английском, русском и узбекском языках.

